

## Harbiylar Nutqida Qo‘Llaniladigan Harbiy Va Noharbiy Frazeologik Birliklar

*Maripova Xurshidaxon Muzafarjonovna<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nemis tilidagi harbiylar nutqidagi harbiy va noharbiy frazeologik birliklarning ma’no ifodasi tahlil qilindi. Harbiy submadaniyatning nutqida ham emotsional semaning ko’rinishi sodiqlik, Vatan oldidagi burchi va sobitqadamlik kabi ijobiy semalardagi ko’rinishi nemis tilidagi misollarda yoritildi. Shuningdek, maqolada olamning lingvistik manzarasida “shaxs qiyofasi” tushunchasi barcha lingvomadaniy jamoalar uchun umumiy bo‘lgan va muayyan etnik guruhlarga xos bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlar borligi manbalarga asoslangan xolda ko’rsatildi.

**Tayanch so’zlar:** til, nutq, harbiy, etnik, madaniyat, Vatan, jamiyat, xulq-atvor, frazeologik birlik, harbiy xizmatchi.

Ma’lumki, olamning lingvistik manzarasida inson tili markaziy o‘rinni egallaydi va u madaniyat hamda shaxs o‘rtasidagi lisoniy tizimning asosiy bo‘g‘ini sanaladi. Shaxs tili va uning murakkab ichki dunyosi, boshqa narsa va hodisalarga, odamlarga, taqdirlarga o‘z munosabati jihatidan ko‘pgina olimlarni qiziqtirib keladi.

Insонning dunyoqarashi orqali tilda frazeologik birliklar shakllanadi. Ularning obrazliligini ochib berish, jamiyat mentalitetiga kirib borish, shuningdek, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimi va yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Olam lingvistik manzarasida “shaxs qiyofasi” tushunchasi barcha lingvomadaniy jamoalar uchun umumiy bo‘lgan va muayyan etnik guruhlarga xos bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlardan iborat. Olamning lingvistik manzarasida shaxs obraqi – bu semantik birliklarning umumiy tizimi va til qoidalari bilan obyektivlashtirilgan shaxs haqidagi inson bilimlari majmuasidir. Shaxs ma’naviy qiyofasini lingvokulturologik jihatdan o‘rganish muayyan madaniyat vakillarining xulq-atvoriga eng katta ta’sir ko‘rsatadigan jamoa a’zolarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Ushbu ijtimoiy-madaniy jihatlar etnik jamoa a’zolari uchun xatti-harakatlar modeli bo‘lib, taqlid yoki qarama-qarshilik obyektiga aylanadi. Ularning yig‘indisi bir millat, muayyan jamiyat madaniyatini tashkil qiladi.

Ushbu tadqiqot doirasida bizni qiziqtirgan harbiy jamiyat vakilining ijobiy va salbiy xulq-atvori bilan bog‘liq bo‘lgan frazeologik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatishdan iborat.

Shuni ta’kidlash kerakki, madaniyat va uni tashkil etuvchi idiomalar, axloqiy ko‘rsatmalar va urfodatlar etnik guruh vakilining shaxsiyatini ifodalovchi ijtimoiy xulq-atvor me’yorlari majmuasini tashkil qiladi. Milliy til frazeologik birliklari bilan ifodalangan armiya jamiyatni vakilining qiyofasi inson xatti-harakati tabiatini belgilaydi va harbiy submadaniyat doirasida harbiy xizmatchilar uchun ham, etnik jamoalarning barcha a’zolari uchun ham axloqiy ko‘rsatmalarni belgilaydigan shaxsiy modelni o‘zida mujassam etadi.

Har qanday xalq harbiy submadaniyatining vakili ijtimoiy mas’uliyatlilik, vatanparvarlik, mamlakatga, o‘z xalqiga va harbiy tamoyillarga sodiqlik, punktuallik, harbiy vazifalarni bajarishda sobitlik, ma’naviy yetuklik va fidoyilikka tayyorlik kabi fazilatlari bilan ajralib turadi. Bu esa jamiyat ongida harbiy xizmatchining ijobiy qiyofasini shakllantiradi.

<sup>1</sup> Gumanitar yo‘nalishlar bo‘yicha chet tillari kafedrasи o‘qituvchisi, Farg’ona davlat universiteti



Masalan, Germaniyada milliy, madaniy, tarixiy va estetik ahamiyatga ega film sifatida e'tirof etilgan "Gulagdan qochish" ("So weit die Füsse tragen", rejissyor Hardy Martins, Cascadeur Filmproduktion) harbiy dramasidan misol keltiraylik. Film qahramoni Klemens Forell – nemis leytenantı Sibirdagi asirlikdan qochib, Vataniga qaytish uchun harakat qiladi. Ko‘p qiyinchiliklarni boshidan kechirgan irodali Klemens niroyat o‘z uyiga Germaniyaga yetib boradi. Bu borada o‘zbek filmlaridan "Ilhaq" (rejissyor – Jahongir Ahmedov), "Xalq jasorati" (rejissyor – Ali Hamroyev), "101" (rejissyor – Hamidulla Hasanov) va "Vatan" (rejissor – Zulfiqor Musoqov) badiiy-tarixiy filmlari milliy-madaniy ahamiyatga ega. Urush yillarida Vatan oldidagi burch, harbiy xizmatni o‘tash yuksak qadriyat timsoli bo‘lgan harbiy jamoa – o‘rtoqlar va qo‘sish guruhlari orasida "Xizmat hamma narsadan ustun", "Fidokorona xizmat" kabi shiorlarda o‘z aksini topgan.

Harbiy xizmatchi ijobjiy tiliga ega namunali shaxs butun xalq madaniyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan xatti-harakatlarning stereotipi va boshqa etnik guruhlar vakillari uchun ushu madaniyatning ramzi bo‘lib xizmat qiladi [50;11]. Kengroq ma’noda, ma’lum bir madaniyatning taniqli vakillari ta’siri, ularning yig‘indisi muayyan jamiyat madaniyatini tashkil qiladi. Namunali shaxs ham tanqidiy munosabatni keltirib chiqaradi va salbiy baho berilishi mumkin. Shunday qilib, ushu tadqiqot doirasida biz harbiy xizmatchining namunali shaxsiyatini va salbiy tahlilini ajratib ko‘rsatamiz. Bunda shaxsning jasorat, qat’iyat va sadoqat kabi fazilatlariga ega bo‘lishi uning armiya hizmatidagi xatti-harakatlarga bog‘liq.

Harbiy xizmatchining xususiyatlarini aniqlashga yordam beradigan lingvistik vositalar orasida jamiyatning madaniy dominantlarini ajratib ko‘rsatishga imkon beradigan semantikada qadriyatlar va streotipler qat’iylashgan frazeologik birliklarga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Masalan, har xil turdagи frazeologik birliklar qarama-qarshi elita va vulgar lingvistik shaxs ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Xarbiy xizmatchining nutqi neytral, yuqori yoki qisqartirilgan (qoida tariqasida, parodiya qilingan) barqaror ko‘rinishlardan foydalanishi bilan ajralib turadi. Vulgar va jargon xarbiy xizmatchining shaxsini ifodalovchi kundalik nutq vositasi hisoblanadi. Harbiy frazeologik birliklarga ega bo‘lish, ularning asl (denotativ) ma’nosini tushunish, turli xil muloqot holatlarida qo‘llash maqsadga muvofiqligini anglatadi.

Ma’lumki, harbiy submadaniyatning asosiy qadriyatlariga mos keladigan kursant, serjant yoki ofitser madaniy makon doirasida ijobjiy misol, ya’ni namunadir.

Namunali harbiy xizmatchining birinchi ijobjiy ko‘rinishi sodiqlik, Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishi, konstitusiyaga, Qurolli Kuchlarga, uning bo‘linmasi va safdoshlariga sadoqatidan iborat. Qurolli Kuchlar safiga kirgan harbiy xizmatchi qasamyod qilar ekan, bu uning uchun kelajakda Vatan oldidagi burchini sodiqlik bilan bajarishida ma’naviy yo‘riqnomadir. Vatanga sadoqatni va harbiy birlashmaning an‘analarini namoyon etuvchi harbiy xizmatchiga xos ijobjiy xususiyat va sifatlar quyidagi frazeologik birliklarda namoyon bo‘ladi:

- *mit seinem Blut besiegen* – birovni yoki biror narsani himoya qilish uchun o‘zini qurban qilmoq;
- *für jn in die Bresche springen* – kimadir yordam bermoq; kim bilandir joy almashmoq; yana bir muhim ma’nosı – o‘zini do‘stlari uchun fido qilmoq;
- *dem Feind goldene Brücke bauen* – dushmanning chekinishiga imkoniyat bermoq;
- *unter die Waffen rufen* – safarbar qilmoq;
- *unter den (yoki in) Waffen stehen* – safarbar bo‘lmoq;
- *jn zu den Waffen rufen* – safarbarlikni e’lon qilmoq.

O‘z Vataniga sodiq bo‘lgan harbiy xizmatchining shaxsiyati, xulq-atvori harbiy submadaniyat a’zosiga xos bo‘lgan ijobjiy fazilatlarni o‘zida mujassam etadi va ma’lum bir qiymat stereotipik g‘oyalarini o‘z ichiga oladi [52;179-183].

Harbiy xizmatchi xarakterining kuchliligi nafaqat uning harbiy xizmatdagi qiyinchiliklarni sobitqadamlik bilan yengib o‘tish tayyorligida, balki harbiy xizmatchining ikkinchi asosiy qadriyati bo‘lgan Vatan oldidagi burchini so‘zsiz bajarishida namoyon bo‘ladi. Jamiyatning hal qiluvchi,



qat'iyatli va jasur shaxsi sifatida namunali harbiy xizmatchining stereotipik g'oyalari quyidagi frazeologik birliklarda o'z ifodasini topgan:

- *Einkampf bis aufs Messer, d.h. Ein harter erbitterter Kampf*, hayot va mamot uchun kurash. z.B. *Sie sehen mich zum Äußersten entschlossen! Zwischen uns gibt es nur noch einen Kampf bis aufs Messer* (H.Mann "Der Untertan") – Nimanidir oldida to'xtab qolganim yo'q, ko'ryapsiz! Hali bizning o'rtamizda hayot va mamot uchun jang bo'ladi.
- *sich selbst besiegen ist der schönste Sieg* (F.Logau) – o'z ustidan g'alaba qozonish eng go'zal g'alaba;
- *das Feld behaupten* – egalik qilmoq; g'alaba qozonmoq;
- *das Feld bewinnen* – g'alaba qozonmoq;
- *jn, etw. aus dem Feld schlagen* – kimnidir, nimanidir mag'lub qilmoq, kimnidir sindirmoq;
- *zu Felde ziehen für (oder gegen) jn, etw.* – himoya qilmoq.

Tinchlik davrida ham, urush davrida ham qat'iyatlilik bilan mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, muvaffaqiyatga erishish yo'lida mehnat qilish kabi fazilatlar harbiy xizmatchining Vatan oldidagi ma'naviy burchi bo'lib, bu mard jangchi – harbiy xizmatchi timsoliga xosdir. Masalan:

- *in voller Kriegsbemalung – jangga to 'liq tayyorlik;*
- *die Fahne hoch halten – bayroqni baland ko 'tarmoq; sodiq bo 'lmoq;*
- *etw. mit seinem Blut besiegeln – jon bermoq; jon fido qilmoq;*
- *rangehen wie Blücher – qat'iy harakat qilmoq, so'zma-so'z tarjimada, Blyuxerdekk jangga kirib bormoq.*

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, milliy istiqlol sharofati bilan O'zbekiston Respublikasining chet tillarini o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Bu esa yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, xorijiy tillarning madaniyatiga bo'lgan qiziqishini, tillarni qiyoslash, tarjima qilish va pragmatik doira orqali mukammal o'rganish jarayonini oshirmoqda.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бинович Л.Э., Гришин Н.Н. Немецко-русский фаразеологический словарь.– М.: Русский язык, 1975. – 1975. 95, 100, 168, 350, 396, 397, 420, 496, 501, 538 с.
2. Войнова Л.А., Жуков В.П., Молоткова А.И., Федоров А.И., Фаразеологический словарь русского языка. – М.: Энциклопедия, 1967. – 284, 285, 544 с.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.– 407 б.
4. Содиқова М. Қисқача ўзбекча-русча мақол-мatalлар луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 259 б.
5. Умархўжаев М.И., Назаров К.Н., Deutsch-Russisch-Uzbekisches Phraseologisches Wörterbuch, –Т:Ўқитувчи – 1994.–157 б.
6. Маслова В.А. Лингвокультурология: учеб. пособие для студентов высш. учеб. заведений. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
7. Карасик В.И. Лингвокультурный типаж: к определению понятия // Аксиологическая лингвистика: лингвокультурные типажи: сб. науч. тр. / В.И.Карасик, О.А.Дмитриева; под ред. В. И. Карасика. – Волгоград: Парадигма, 2005. – 310 с.
8. Касьянова К.О русском национальном характере / К. Касьянова. – М.:Инт нац. модели экономики, 1994. –367 с.

